



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA 5-9-SINFLARDA AUTENTIK MATERIALLAR YORDAMIDA CHET TILI LUG'ATINI KONTEKSTDA O'RGATISH METODIKASI

Ismatova Madina Inomjon qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

ismatovamadina2407@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 5-9-sinflarida autentik materiallar yordamida chet tili lug'atini kontekstda o'rgatish metodikasining nazariy asoslari tahlil qilinadi. Kontekstli yondashuv metodining afzalliklari va uni o'rta maktab ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'llari ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, autentik materiallar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda, so'zlarni uzoq muddatli xotiraga o'zlashtirishda va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada lug'at o'rgatishning an'anaviy usullariga nisbatan kontekstli yondashuvning ustunliklari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *autentik materiallar, lug'at o'rgatish, kontekstli yondashuv, kommunikativ kompetensiya, o'rta maktab, chet tili ta'limi, so'z boyligi, metodika.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations of teaching foreign language vocabulary in context through the use of authentic materials in grades 5–9 of general secondary schools. The advantages of the contextual approach and the ways of its implementation in the secondary school educational process are examined. The research findings indicate that authentic materials play a significant role in developing students' communicative competence, promoting long-term vocabulary retention, and fostering intercultural communication skills. The article substantiates the superiority of the contextual approach over traditional vocabulary teaching methods.*

Keywords: *authentic materials, vocabulary teaching, contextual approach, communicative competence, secondary school, foreign language education, vocabulary, methodology.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы обучения лексике иностранного языка в контексте с использованием аутентичных материалов в 5–9 классах общеобразовательных школ. Рассматриваются преимущества контекстного подхода и пути его внедрения в учебный процесс средней школы. Результаты исследования показывают, что аутентичные материалы играют важную роль в развитии коммуникативной компетенции учащихся, обеспечивают долговременное усвоение словарного запаса и способствуют формированию навыков межкультурной коммуникации. В статье обоснованы преимущества контекстного подхода по сравнению с традиционными методами обучения лексике.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Ключевые слова: *аутентичные материалы, обучение лексике, контекстный подход, коммуникативная компетенция, средняя школа, обучение иностранному языку, словарный запас, методика.*

KIRISH

Zamonaviy chet tili ta'limida lug'at o'rgatish masalasi metodikaning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida chet tillarni o'rgatishga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda va bu jarayon o'qitish metodikasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Lug'at o'rgatishning an'anaviy usullari, ya'ni so'zlarni ro'yxat ko'rinishida yodlatish, tarjima qilish va izolyatsiyalangan holda mashq qildirish kabi yondashuvlar ko'pincha kutilgan samarani bermayapti [1, b. 45]. O'quvchilar yangi so'zlarni qisqa muddatda eslab qolsalar-da, ularni nutqda faol qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu holat metodistlarni yangi, samaraliroq yondashuvlarni izlashga undamoqda.

Autentik materiallar yordamida lug'atni kontekstda o'rgatish metodikasi aynan shu muammoga yechim sifatida ilmiy jamoatchilik tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Autentik materiallar deganda, til o'rgatish maqsadida maxsus yaratilmagan, balki ona tilidagi muloqot uchun mo'ljallangan haqiqiy matnlar, audio va video materiallar tushuniladi [2, b. 112]. Bunday materiallar o'quvchilarga tilning tabiiy qo'llanilishini kuzatish, madaniy kontekstni his etish va so'zlarni real kommunikativ vaziyatlarda o'rganish imkoniyatini beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarining 5-9-sinflarida autentik materiallar yordamida chet tili lug'atini kontekstda o'rgatish metodikasining nazariy asoslarini tahlil qilish va uning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil uchun o'zbek, rus va xorijiy olimlarning autentik materiallar va lug'at o'rgatish metodikasiga oid ishlaridan foydalanildi. Autentik materiallar tushunchasi birinchi marta 1970-yillarda kommunikativ yondashuv doirasida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, bu borada britaniyalik metodist H. Widowsen muhim hissa qo'shgan [3, b. 78]. Olim ta'kidlashicha, autentik matn nafaqat grammatik va leksik jihatdan to'g'ri yozilgan matn, balki real kommunikativ maqsadni ko'zda tutgan, muayyan auditoriya uchun yaratilgan va tabiiy kontekstda mavjud bo'lgan matndir.

Rossiyalik metodist E.N. Solovova autentik materiallarni ikki turga ajratadi: autentik va yarim autentik materiallar [4, b. 156]. Autentik materiallar to'liq asl holda saqlanib, hech qanday o'zgartirishlarsiz ta'lim jarayonida qo'llanilsa, yarim autentik materiallar o'quvchilarning til darajasiga moslashtirish maqsadida qisman soddalashtiriladi. Biroq, olimaning fikricha, har ikki holda ham materialning kommunikativ haqiqiyliги saqlanishi lozim. Ya'ni, matn hayotiy vaziyatlarni aks ettirishi, tabiiy til birliklarini o'z ichiga olishi va pragmatik maqsadga ega bo'lishi kerak. Bu fikrni J.F. Jalolov ham qo'llab-quvvatlaydi va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ta'kidlaydi-ki, chet tili darslarida foydalaniladigan materiallar o'quvchilarni real muloqot vaziyatlariga tayyorlashi zarur [5, b. 89].

Lug'atni kontekstda o'rgatish g'oyasi kognitiv psixologiya va konstruktivistik ta'lim nazariyalariga asoslanadi. Amerikalik psixolog va tilshunos S. Krashen o'zining "Input Hypothesis" nazariyasida ta'kidlaganidek, til o'rganuvchilar tushunarli va biroz murakkab til kiritishi (comprehensible input) orqali tilni o'zlashtirishadi [6, b. 21]. Bu nazariyaga ko'ra, so'zlarni izolyatsiyalangan holda o'rganish samarasiz, chunki ular xotiraga ulanish nuqtalarisiz kiradi va tez unutiladi. Aksincha, kontekstda, ya'ni mazmunli matn yoki muloqot ichida so'zlar bilan tanishish ularning chuqurroq o'zlashtirilishiga olib keladi. Bu holatda so'z nafaqat semantik jihatdan, balki pragmatik, stilistik va grammatik jihatdan ham o'rganiladi.

P. Nation lug'at o'rgatishning chuqurligini tahlil qilar ekan, so'zni bilish tushunchasining ko'p qirrali ekanligini ta'kidlaydi [7, b. 27]. Olim fikricha, so'zni to'liq bilish deganda uning shakli (talaffuzi, imlo), ma'nosi (denotativ va konnotativ ma'nolar), qo'llanishi (grammatik xususiyatlar, kollokatsiyalar, registr) haqida bilim tushuniladi. An'anaviy usullar ko'pincha faqat so'zning shakli va asosiy ma'nosiga e'tibor beradi, holbuki kontekstli yondashuv so'zning barcha qirralarini qamrab olish imkonini beradi. Masalan, gazeta maqolasida uchraydigan so'z o'quvchiga nafaqat uning ma'nosini, balki qaysi uslubda, qanday grammatik konstruksiyalarda va qaysi so'zlar bilan birga kelishini ham ko'rsatadi.

O'zbek metodist olimlari ham autentik materiallarning ta'limdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar. M. Xolbekov va boshqalar chet tili darslarida autentik matnlardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishini, ularni haqiqiy til muhitiga yaqinlashtirishini qayd etadilar [8, b. 34]. Shu bilan birga, olimlar autentik materiallarni tanlashda o'quvchilarning yoshi, til darajasi va qiziqishlarini hisobga olish zarurligini alohida uqtiradilar. 5-9-sinf o'quvchilari uchun qo'llaniladigan autentik materiallar ularga tushunarli, qiziqarli va yosh xususiyatlariga mos kelishi lozim. Bu borada bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallangan gazeta va jurnallar, qo'shiqlar, multfilm va filmlardan parchalar, reklama materiallari, menyu va yo'riqnomalar kabi materiallar samarali bo'lishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili natijasida autentik materiallar yordamida lug'atni kontekstda o'rgatishning bir qator afzalliklari aniqlandi. Birinchidan, autentik materiallar so'zlarning tabiiy qo'llanilishini namoyish etadi. O'quv qo'llanmalarida ko'pincha sun'iy, hayotdan uz oq misollar keltirilsa, autentik matnlarda so'zlar real muloqot kontekstida namoyon bo'ladi. Bu o'quvchilarga so'zlarni qanday vaziyatlarda, qaysi registrda va qaysi so'zlar bilan birga ishlatishni tushunish imkonini beradi [9, b. 203]. Masalan, "make" fe'lining turli kollokatsiyalarini (make a decision, make a mistake, make friends) o'rganishda autentik matnlar bu birikmalarning tabiiy kontekstlarini taqdim etadi, bu esa ularni mexanik yodlashdan ko'ra samaraliroqdir.

Ikkinchidan, autentik materiallar o'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantiradi. Til va madaniyat uzviy bog'liq bo'lganligi sababli, lug'atni o'rgatishda madaniy kontekstni e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Autentik materiallar o'quvchilarga til





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



egalarining turmush tarzi, qadriyatleri, an'analari haqida bevosita ma'lumot beradi [3, b. 82]. Masalan, ingliz gazeta maqolasidagi "queue" so'zi nafaqat "navbat" ma'nosini, balki ingliz madaniyatida navbatga rioya qilishning muhimligini ham aks ettiradi. Bunday madaniy nuanslarni darslikdagi sun'iy misollar orqali yetkazish qiyin.

Uchinchidan, kontekstli yondashuv so'zlarni uzoq muddatli xotiraga o'zlashtirishga yordam beradi. Kognitiv psixologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar mazmunli kontekstda, boshqa bilimlar bilan bog'liq holda o'rganilib, xotiraga chuqurroq o'rnashadi [6, b. 45]. Autentik matnda so'z bilan tanishgan o'quvchi uni matn mazmuni, personajlar, voqealar bilan bog'laydi va bu bog'lanishlar so'zni eslab qolishni osonlashtiradi. An'anaviy usulda so'z va uning tarjimasini orasida faqat bitta bog'lanish mavjud bo'lsa, kontekstli yondashuvda ko'plab assotsiativ aloqalar shakllanadi.

To'rtinchidan, autentik materiallar o'quvchilarning o'qish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga ham hissa qo'shadi. Lug'at o'rgatish alohida jarayon sifatida emas, balki integratsiyalashgan til ta'limining bir qismi sifatida amalga oshirilganda samaradorlik oshadi [10, b. 67]. O'quvchi autentik matnni o'qish yoki tinglash jarayonida yangi so'zlarni o'rganar ekan, ayni paytda matn tuzilishini tahlil qilish, asosiy g'oyani aniqlash, ma'lumot izlash kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Bu esa ta'lim vaqtidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Biroq, autentik materiallar yordamida lug'at o'rgatishda muayyan qiyinchiliklar ham mavjud. 5-9-sinf o'quvchilarining til darajasi hali yetarli darajada rivojlanmagan bo'lganligi sababli, murakkab autentik materiallar ularni tushkunlikka solishi mumkin. Shu bois, o'qituvchi materiallarni sinchkovlik bilan tanlab, zarur hollarda scaffolding, ya'ni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash strategiyalarini qo'llashi lozim [4, b. 160]. Bunday strategiyalar qatoriga oldindan kalit so'zlarni tushuntirish, vizual materiallardan foydalanish, matnni qismlarga bo'lib ishlash, lug'at topshiriqlarini bosqichma-bosqich murakkablashtirish kiradi. Muhimi, autentik materiallarning haqiqiyliги saqlanib qolishi, ya'ni ularning kommunikativ tabiati buzilmasligi kerak.

Autentik materiallar yordamida lug'at o'rgatishning yana bir muhim jihati shundaki, bu yondashuv o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchi autentik matn bilan ishlash jarayonida noma'lum so'zlarning ma'nosini kontekst orqali taxmin qilishni, lug'atdan samarali foydalanishni, so'zlarning morfologik tuzilishini tahlil qilishni o'rganadi. Bu ko'nikmalar nafaqat maktab ta'limi davomida, balki keyingi hayotda ham o'quvchiga xizmat qiladi, chunki til o'rganish umrbod davom etadigan jarayondir. An'anaviy usulda o'quvchi doimo o'qituvchiga yoki lug'atga muhtoj bo'lib qolsa, kontekstli yondashuv uni mustaqil til o'rganuvchiga aylantiradi. Bundan tashqari, autentik materiallar bilan ishlash o'quvchilarda analitik tafakkurni rivojlantiradi, chunki ular matn ichidan kerakli ma'lumotni ajratib olish, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni farqlash, muallif maqsadini anglash kabi murakkab kognitiv operatsiyalarni bajarishga majbur bo'ladilar.

Shuningdek, autentik materiallar o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'quvchilar sun'iy, maxsus o'quv maqsadida yaratilgan matnlarni ko'pincha





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



zerikarli va hayotdan uzoq deb qabul qiladilar. Aksincha, haqiqiy gazeta maqolalari, mashhur qo'shiqlar, qiziqarli video lavhalar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar kabi materiallar ularda qiziqish uyg'otadi va o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi. O'quvchi o'zi yoqtirgan xorijiy qo'shiq matnini tushunish, sevimli filmidagi dialoglarni anglash, qiziqarli maqolani o'qib chiqish orqali yangi so'zlarni o'rganayotganini his qilganda, bu jarayon uning uchun majburiyat emas, balki zavqli mashg'ulotga aylanadi. Motivatsiyaning oshishi esa o'z navbatida o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi, chunki psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional jihatdan qiziqarli material xotirada uzoqroq saqlanadi va faolroq qo'llaniladi. Shu sababli, o'qituvchilar autentik materiallarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini chuqur o'rganib, ularga mos keladigan materiallarni izlashlari maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Umumta'lim maktablarining 5-9-sinflarida autentik materiallar yordamida chet tili lug'atini kontekstda o'rgatish metodikasi zamonaviy chet tili ta'limining samarali yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bu metodika an'anaviy lug'at o'rgatish usullariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: so'zlarning tabiiy qo'llanilishini namoyish etadi, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi, so'zlarni uzoq muddatli xotiraga o'zlashtirishga yordam beradi va integratsiyalashgan til ta'limini ta'min laydi. Biroq, bu metodikani samarali qo'llash uchun o'qituvchidan autentik materiallarni o'quvchilarning yoshi, til darajasi va qiziqishlariga moslab tanlash, zarur hollarda qo'llab-quvvatlash strategiyalarini qo'llash talab etiladi. Kelgusida autentik materiallar yordamida lug'at o'rgatish metodikasining amaliy jihatlarini, xususan, materiallarni tanlash mezonlari, dars loyihalari va baholash usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рогова Г.В., Рабинович Ф.М., Сахарова Т.Е. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287 с.
2. Носонович Е.В., Мильруд Р.П. Критерии содержательной аутентичности учебного текста // Иностранные языки в школе. – 1999. – № 2. – С. 110-118.
3. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. – Oxford: Oxford University Press, 1978. – 168 p.
4. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. – М.: Просвещение, 2006. – 239 с.
5. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
6. Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
7. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 477 p.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



8. Xolbekov M., Qurbonova R. Chet tili ta'limida autentik materiallardan foydalanish// Til va adabiyot ta'limi. – 2018. – № 4. – B. 32-36.
9. Richards J.C. The Context of Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – 257 p.
10. Schmitt N. Vocabulary in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 224 p.

